

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari
(arab OAV asosida)

Bajardi: Arab filologiyasi ta'lim

yo'nalishi bitiruvchisi kurs

talabasi Ilhomov Abdulaziz_____imzo

Ilmiy rahbar: Arab filologiyasi kafedrası

Katta o'qituvchisi

Aliyev Dilshod_____imzo

Ilhomov Abdulazizning “Ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari (arab OAV asosida)” mavzuidagi bitiruv malakaviy ishida “boshqaruv” atamasi borasida ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari masalasidagi tilshunos olimlarning fikrlari o'rin olgan. Bundan tashqari fe'liy boshqaruvda eng ko'p ishlatiladigan ko'makchilarning tasnifi va ma'nolari, majhul daraja fe'llarining ko'makchilari bilan qo'llanishi, ko'makchilar bilan ko'p qo'llaniladigan fe'llar hamda ko'makchili fe'liy birikmalarning Arab OAVda qo'llanish holatlari bayon etilgan.

Toshkent -2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi.

“Sharq Filologiyasi va Falsafa” fakulteti dekani

**Arab filologiyasi kafedrası mudiri, katta
o’qituvchisi**

f.f.n.dots. J.T. ZIYOMUHAMMEDOV.

N.M. ORIFXO’JAYEV

“ _____ ” _____ **2012**

“ _____ ” _____ **2012**

Mundarija:

Kirish.....	2
I Bob Arab tili grammatikasida fe'liy boshqaruvning o'rni.....	6
1. 1”Boshqaruv” atamasi haqida tishunos olimlarining fikrlari.....	6
1.2 Arabshunos olimlarning ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari haqidagi fikrlari.....	8
1.3 Fe'liy boshqaruvda eng ko'p ishlatiladigan ko'makchilarning tasnifi va ma'nolari.....	15
1.4 Majhul darajadagi fe'llarning ko'makchilar bilan qo'llanishi...29	
1.5 Ko'makchilar bilan ko'p qo'llaniladigan fe'llar.....	33
II Bob. Ko'makchili fe'liy birikmalarning amalda qo'llanilishi.....	37
2.1 Arab OAV da ko'p qo'llaniladigan ko'makchili fe'liy birikmalarining statistik tahlili.....	37
2.2 Ko'makchili fe'liy birikmalarning arab OAV da qo'llanilishi.....	42
Xulosa.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	49

Kirish

“Ko’makchili fe’liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari” (Arab OAB asosida) mavzusi ko’p adabiyotlarda aniq sharhlanmaganligi bois, bizdagi qoidalarni o’zbek va ba’zi arab manbalaridan olib, foydalandik va o’zimizning shaxsiy muloxazamiz, fikrlarimizni bildirdik.

Arab tilida sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga bo’ysunuvchi yoki biri ikkinchisini aniqlovchi so’zlar munosabati tobe bog’lanish orqali ifodalanadi. Ot+sifat tarzida tartiblangan so’z birikmasida hokim va tobe so’zlar yo’q, bunda otdan keyin turgan sifat otni aniqlaganligi uchun u aniqlanmish deb ataladi.

مدينة كبيرة misolida “katta” sifati “shahar” so’zini aniqlab kelayapti. Bu yerda arab tili grammatikasi nuqtai nazaridan qaraganimizda moslashuv to’rt ko’rinishda to’liq bo’layapti. Bu ikki so’zdan hosil bo’lgan so’z birikmasida boshqaruv bormi degan savol tug’uladi. Moslashuvli birikmalardagi ikkita so’z bir biriga tobe bo’lmagalligi bois, ularda tobelik bo’lmaydi. Tobelik va hokimlik o’rinlarini ot+ot birikmasida kuzatishimiz mumkin. Chunki bunday birikmada tobe so’z hokim so’zga qaram (ya’ni qarashlik) bo’ladi va shuning uchun uni qaratqich aniqlovchi deb ataymiz. صحيفة الكتاب so’z birikmasida kitob-hokim “sohifa” esa tobe so’z bo’ladigan bo’lsa, “kitob” so’zi hokim sifatida “sohifa” so’zini boshqariyapti. “Sahifa” so’zi o’rnida صاحب “-egasi” so’zi kelsa ham, صاحب الكتاب misolida “kitob” so’zi qaratqich kelishigida turib, kitobning “egasi” aniqligini ko’rsatyapti, shuning uchun bunday boshqaruv kelishikli boshqaruv deb ataladi. Bundan tashqari ko’makchili boshqaruv turi ham mavjud. Bunday bo’linish ikkala boshqaruv turi, ya’ni ham fe’lli , ham otli boshqaruvga aloqadordir. Bizning mavzuimizga fe’lli boshqaruv yaqinroq bo’lganligi uchun unga ko’proq e’tibor qaratamiz.

Arab tilida o’timli fe’llar o’zi bilan birikkan otni boshqarib, uning tushun kelishigida turishini talab qiladi. Shuningdek fe’l o’zi bilan birikkan otni biror ko’makchi orqali (vositasida) ham boshqarishi mumkin. Boshqaruv bevosita faqat fe’lning o’zi tomonidan amalga oshirilsa, o’sha so’z vositasiz to’ldiruvchi bo’ladi. Agar fe’l biror so’zni ko’makchi yordamida boshqarsa, o’sha so’z gapda vositali to’ldiruvchi hisoblanadi. Boshqaruvning qandayligi fe’lning o’timli yoki o’timsiz bo’lishiga bog’liq. M: شاهد أنور الحديقة “Anvar bog’ni tomosha qildi” misolida

“tomosha qildi” fe’li bevosita “bog” so’zini boshqarib uni tushun kelishigida turishini talab qilayapti. Agar bu gapdagi fe’lni o’timsiz fe’l-ko’makchili fe’l bilan almashtirsak, boshqaruv bevosita emas, bilvosita bo’ladi. M: مرّ أنور بالحديقة
“Anvar bog’ oldidan o’tdi” bu misolda مرّ ب ko’makchili fe’li “bog’ so’zini” ب ko’makchisi yordamida boshqarayotganligi uchun “bog’ so’zi vositali to’ldiruvchi bo’lib kelayapti. Demak, boshqaruvda ko’makchili fe’l asosiy rolni o’ynar ekan. Shundan kelib chiqib, boshqaruvni ikkiga-o’timli ko’makchisiz fe’lning ot boshqaruvi va o’timsiz fe’lning ko’makchi vositasida (ya’ni ko’makchili fe’li) boshqaruviga ajratish mumkin.

Demak, boshqaruv ikki hil bo’ladi: 1. O’timli ko’makchisiz fe’lning otni boshqaruvi, 2. O’timsiz fe’lning ko’makchi vositasida (ya’ni ko’makchili fe’liy) boshqaruvidir.

Quyida bu mavzuni yanada mukammalroq tarzda sharhlab beramiz.

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. “Ko’makchili fe’liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari” mavzusi juda murakkab mavzu hisoblanadi shuning uchun bu mavzu ustida tadqiqot ishini olib borishdan avval fe’llarning yakka o’zini ishlatilishi va ularning ma’nolarini, keyin esa, ularning ko’makchilar – predloglar bilan kelishidagi boshqaruvi natijasida ma’nolarning o’zgarishini tahlil qilish kerak bo’ladi . Ana shu ikki masalani hal etish bitiruv malakaviy ishining asosini tashkil etadi. Ana shu masalalarni hal etib bu sohada biroz bo’lsada yangilik topish mazkur masalaning dolzarbligini anglatadi .

Mavzuning o’rganganlik darajasi. Ko’makchili fe’liy birikmalar mavzusini yoritish masalasi bo’yicha Grande V.M ¹, Shagal V.Y.² , Ibragimov I.D³ , Talabov E.⁴ , Lebedev V.T.⁵ ,Dubinina N.V va Kovirshina V.V.⁶ , Mayburov N.A.⁷ , Ahmad al-Hamalaviy⁸, Hifni Nosif⁹, Muhammad Diyablarning arab tili grammatikasiga bag’ishlangan asarlari ko’rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida ko’p mu’alliflarning mazkur mavzu haqidagi fikrlari bilan tanishildi. Lekin bu mavzu haqidagi qoida va misollar barcha olimlarning kitoblarida berilmagan . Masalan Ibrogimov N.M., Yusupovlarning “Arab tili grammatikasi “ kitoblarida bu mavzu haqida birorta ma’lumot berilmagan. Keltirilgan mu’alliflarning fikrlari tavsifi keyingi betlarda bayon etiladi .

1. Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitelno-sitoricheskom osvishshenii M. 1998

2. Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983

3. Ibragimov I.D. intensivniy kurs ar.yaz. M.2006

4. Talabov E. arab tili T. 1992

5. Lebedev V.G. , Tyureva L.S. prakticheskiy kurs ar.lit. yazika “Vostok-Zapad” M 2005”

6. Dubinina N.V. , Kavirsheno V.e. uroki ar.yaz M.2004

7. Mayburov N.A. chitayem I perevodim arabskuyu gazetu M. 2001

8. كتاب شزل العرف , الشيخ أحمد الحملاوي بيروت لبنان 1906

9. الدروس النحويّة حفني ناصف. محمد دياب T.2006

Tadqiqot maqsadi: Arab tilidagi ko'makchili birikmalar nima , ularning ahamiyati, uning gapdagi o'rni , uning tuzilish variantlarining qoidalarini berish. Ko'makchi fe'lni boshqaradimi yoki fe'l ko'makchini boshqaradimi singari savollarga to'g'ri javob qaytarish. Shu bilan birga mavzuni arab OAV dan olingan misollar bilan isbotlab berish. Unga o'zimmizning shaxsiy munosabatlarimmizni bildirishimiz.

Tadqiqot vazifalari mavzuning asosiy prinsiplarini ochib berishda ko'plab mualliflarning kitoblarida bayon etilgan fikrlarni bir-biriga qiyoslash yo'li bilan bir aniq qarorga kelish, iloji boricha ko'makchili fe'liy birikmalarning o'zbek va rus tillardagi alternativ (o'hshashliklarini) muqoyasa qilish.

Tadqiqot obyekti qilib arab ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan gazeta maqolalarida berilayotgan ko'makchili fe'liy birikmalarning qo'llanish holatlarini tahlil qilish.

Tadqiqot metodi. Arab ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinayotgan maqolalarda uchraydigan ko'makchili fe'liy birikmalarni qiyosiy- tipologik tahlilga tortish metodi bo'yicha tadqiq qilish.

I. BOB. ARAB TILI GRAMMATIKASIDA KO'MAKCHILI FE'LIY BOSHQARUVLARNING O'RNI.

1.1. "Boshqaruv" atamasi haqida tilshunos olimlarining fikrlari

Asosiy mavzuga o'tishdan avval mavzuda ishlatilgan "boshqaruv" atamasining ma'nosini sharhlash foydali bo'ladi. Chunki mavzuning asosiy mazmunini ochishga mazkur so'zning ma'nosini bilmasdan turib erishib bo'lmaydi. "Boshqaruv" so'zi (upravlenie) "Russkiy-Arabskiy" slovarda (Borisov v.m. Russko-arabskiy slovar M¹. 1967 1038b.) da boshqaruvini arabchasiga shunday عمل, تعيد, تعديّة so'zlar bilan berilgan.

"Boshqaruv" atamasining ma'nosi "Russcha-o'zbekcha lug'atda² boshqaruvning 2 hili borligi ko'rsatiladi: Glagolnoe upravleniye-fe'lli boshqaruv, predlojnoe upravleniye-ko'makchili boshqaruv. O'zbek tilining izohli lug'atida: sintaktik aloqa tartibiga ko'ra tobe so'zning hokim so'zga ma'lum kelishik shakli yoki ko'makchi yordamida bog'lanishi. Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik yoki ko'makchilar orqali bog'lanishi boshqaruv deb ataladi. (O'zbek tilining izohli lug'ati, T. 2006, 341b.)³

"Boshqaruv" atamasi va uning amalda qo'llanish yo'llariga yahshi tushunib yetish uchun biz o'zbek tilidagi boshqaruvli birikmalar haqidagi ba'zi qoidalarni keltirishga qaror qildik. Bu , o'zbek tilidagi boshqaruv yo'li to'g'risidagi qoida bo'lsada, u arab tilidagi ko'makchili boshqaruv yo'llarini ham bilib olishga yordam beradi, chunki o'zbek va arab tilidagi boshqaruv turlari o'rtasida o'hshashlik bunga ancha yodam beradi.

Tobe so'zning hokim so'z talab qilgan kelishik affiksini olishi yoki ko'makchi bilan kelishi boshqaruv deyiladi. Boshqaruvchi so'zning qaysi so'z turkumiga taalluqli ekanligiga qarab ot boshqaruvi, sifat, son, ravish, undovlar boshqaruvi yoki modal so'zlar boshqaruvi kabi turlarga bo'linadi. Shuningdek, boshqariluvchi so'zning formasiga ko'ra ham boshqaruv ikki turga ajratiladi:

1. Borisov V.M. Russkiy arabskiy slovar M.1981

2. Russcha-o'zbekcha lug'at T. 1984 y. 640b.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati T.2006, 341b.

1. Kelishikli boshqaruv; 2. Ko'makchili boshqaruv. Bunday bo'linish ikkala boshqarish turi, ya'ni ham fe'lli ham otli boshqarishga aloqadordir. Kelishikli boshqaruvda hokim so'z tobe bo'lakning vosita kelishik formalaridan birida kelishini talab qiladi: onaga mehr g'ishtdan devor. Vosita kelishiklaridan biri formasidagi so'zlar ot boshqaruvida tobe bo'lak vazifasida keladi¹

Tilda ob'yektli birikmalarning asosiy qismini fe'lli birikmalari tashkil qiladi. Bunda fe'lning simantikasi, turli so'zlar bilan kengaya olish qobiliyati, har hil formadagi birikma deb nomlanishi ham fe'lning o'timlilik hususiyati va boshqarish qobiliyati bilan bog'liqdir. O'zbek tilida ob'yektli birikmalarni hosil qilish qobiliyati ko'proq o'timli fe'llarda kuchli bo'lib, o'timsiz fe'llarning ayrimlaridagina bunday hususiyat mavjuddir.²

Arab tilidagi boshqaruvga kelsak , ko'z oldimizga ko'makchili fe'l keladi bunda fe'l bilan ko'makchi munosabatlarini tushunish kerak.

Bu masalada 2 hil fikr va qarash mavjud bo'lib, arabshunos olimlar bu borada turli mulohazaga boradilar.

Mashhur rus arabshunos olimi Grande V.M. ko'makchili fe'llardagi boshqaruv munosabatlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: "fe'l otni bevosita yoki bilvosita-predlog vositasida boshqaradi. Predlog yordamida ot boshqarilganda ot qaratqich kelishigida turishi albatta predlogga bog'liq bo'ladi, chunki predlog barcha holatlarda qaratqich kelishigini talab etadi, biroq fe'l huzurida turgan predlog fe'lga tobe bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, fe'l predlogni emas va predlog ham otni boshqarmaydi. Boshqaruv nuqtai nazaridan qaraganda, fe'l predlog bilan birga bir yagona semantik birlikni tashkil etadi. Ot anashu fe'l+predlog majmuiga tobe bo'ladi, ya'ni ko'makchili fe'liy birikma gapdagi otni boshqaradi. Fe'l otni bevosita (predlogsiz) boshqarsa, ot doim T.k da turadi va bunday fe'llar o'timli fe'llar deb ataladi. Agar fe'l otni biror predlog vositasida boshqarsa, boshqarilayotgan ot doimo Q.k da turadi va bunday fe'llar o'timsiz fe'l deb aytiladi. Demak fe'lning predlog talab qilshi yoki talab qilmasligi fe'lning o'zining tabiatidan kelib chiqadi. Bunda fe'lning o'timli yoki otimsizligi katta ro'l o'ynaydi.

1.O'zbek tili grammatikasi. 2-j. sintaksis. (Mas'ul muharrirlar: G'.A. Abdurahmonov va boshqalar. T: Fan, 1976. 44b.

2. X. Abdurahmonov (va boshqalar) o'zbek tilining amaliy grammatikasi-T O'qituvchi, 1992. 204b.

Predlogning ishlatilish ko'pincha oldinda turgan so'zga bog'liq. M, ba'zi fe'llar keying so'z bilan bog'lanish uchun muayyan predloglarni talab qiladi".¹

Demak, fe'l predlogni boshqaradimi, yoki predlog fe'lni boshqaradimi savolining yechimiga biroz aniqlik kiritildi yuqorida bu savolga o'z navbatida Grande V.M. javob berdi, deb hisoblasak bo'ladi.

1.2 Arabshunos olimlarning ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari haqidagi fikrlari

Boshqa rus arabshunosi Shagal V.Y.² bu masalada quyidagi fikrlarini bildiradi (Shagal V.Y. I dr. Uchebnik arabskogo yazika M. 1983 691b.) u, fe'ldan yasalgan sifatdoshlarning gapdagi so'z bilan munosabatlari haqida shunday deydi: fe'ldan yasalgan va predloglar yordamida boshqaruvchi majhul darajadagi sifatdoshlar moslashgan aniqlovchilar vazifasini bajarib doim muzakkar jinsda va birlikda turadi.

M:

Ishonchga loyiq kishi

رجل موثوق به

Ishonchga loyiq ayollar

نساء موثوق بهن

Mazkur boshqaruv fe'lining o'rnini bosuvchi sifatlar haqida ketsada, bizning ko'makchili fe'llarning boshqaruvi haqidagi fikrlarimizni yanada boisiga hizmat qiladi chunki sifatdosh ham fe'ldan yasalgan shunin uchun u ham otni biror predlog vositasida boshqaradi.

Arab filologiyasi kafedrasida faoliyat ko'rsatayotgan Misrlik tilshunos olim Doktor Hilolga anashu masala bo'yicha murojaat qilganimizda u bu savol bo'yicha quyidagi javobni berdi. : "ma'lumki fe'lining yakka o'zi biror ma'noni anglatadi fe'l kesim gapda asosiy so'z turkumi sifatida o'z o'rniga ega. Predlogning yakka o'zi esa hech qanday ma'noni bildirmaydi chunki u o'z nomi bilan ko'makchi ya'ni yordamchi so'z hisoblanadi. Predloglar fe'l ma'nosini aniqlash, konkretlashtirishga yordam beradi, holos. Shuning uchun fe'l predlogni

1.Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki sravnitelno-istoricheskoy osveshenii M. 2001 445b.

2.Shagal V.E. I dr. Uchebnik arabskogo yazika M. 1983 691b.

boshqaradi. Bunda fe'lining o'zi emas balki ko'makchili fe'l ot boshqarish huquqiga ega.

Mazkur masala bo'yicha Talabov E.¹ (Arab tili T. 1992-yil 116b.) ham fikr bildirganlar : “fe'llar arab tilida o'z to'ldiruvchisini turli yo'llar bilan boshqarishi mumkin: vositasiz , vositali. Vositasiz boshqaruv deb fe'llarning o'z to'ldiruvchilarini vositasiz (predlogsiz)- T.k da boshqaruviga aytiladi.

U bu qalamni do'kondan oldi

أخذت القلم من الدَّكَان

Boshqaruv ko'makchi yordamida ro'y bersa u vositali bo'ladi.

O'qituvchi qalam bilan yozdi

كتب المعلم با لِقلم

Ayrim fe'llar o'z to'ldiruvchilarini bir vaqtning o'zida ham vositasiz, ham vositali boshqaruv hususiyatiga ega bo'ladi:

U choyni shakar bilan ichdi

شربت الشَّاي با لِسكَّر

Ega gapdagi boshqaruvchi- shahs yoki narsani anglatsa, to'ldiruvchi boshqariluvini ko'rsatadi. (E.Talabov 111b.)

Yuqoridagi olimlarning fe'l va predlog munosabatlaridagi boshqaruv haqida bildirgan fikrlariga hulosalar qiladigan bo'lsak, birinchi olim Grandening fikri ancha asosli va haqiqatga yaqin hisoblanadi. U gapdagi otni na fe'l va na predlog boshqaradi, balki u ikkalasining ishtirokidan hosil bo'lgan fe'l+predlog birikmasi otni boshqaradi degan to'g'ri fikrni bildiradi. Doktor Hilal ning fe'l gapda asos hisoblanganligi uchun fe'l predlogni boshqaradi. Predlog yordamchi so'z bo'lganligi uchun u fe'lni boshqara olmaydi deydi. Professor Eminjon Talabovning fikrida ham jon bor. Olim boshqaruv munosabatlarini to'ldiruvchidan kelib chiqib tushuntiradi: ya'ni fe'l gapdagi otni emas balki to'ldiruvchini boshqaradi. Fe'l otni boshqarganda (bog'langanda) o'sha ot to'ldiruvchiga aylanadi. Vositali boshqaruvda o'timsiz fe'l ishtirok etsa, vositasiz boshqaruvda o'timli fe'l ishtirok etishini ta'kidlaydi. Bazan bir o'timli fe'lining o'zi ham vositali va ham vositasiz to'ldiruvchini boshqarishi mumkin.

Arab tili murakkab shu bilan birga qiziqarli til hisoblanadi.

1.Talabov arab tili T.1992 116b.

Arab tili soʻz turkumi 3 qisimdan iborat. Ular اسم (ism), فعل (feʻl) va حرف harfidir. Ular orasida feʻl juda katta va muhim oʻrinni egallaydi. Arab tilini arab feʻllarisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Feʻlning arab grammatikasidan asosiy oʻrinni egallaganligi sababi shuki, ulardan 10 ta hosila boblari boʻyicha soʻzlar yasaladi. Bu noyob xususiyatlari bilan arab tili boshqa tillardan farq qiladi

Arab tilidagi feʻllar 2,3,4 harflardan iborat boʻlib 3 zamonda tuslanadi. Arab tili feʻllari hosila boblarining 1-bobidan 10-bobigacha ularning tarkibini oʻzgarishi bilan, ularning maʼnolari ham oʻzgarib boradi. Feʻllarning ish harakatni bajarishiga koʻra oʻtimli va oʻtimsiz boʻladi. Ularning qoidasi quyidagicha:

1) Agar feʻlning oʻrta harakati “a” – fatha boʻlsa, u harakat maʼnosini anglatadi va u “faol feʻl” deb ataladi: كذب, كسر, نظر, دخل, جلس, كذب

2) Agar feʻlning oʻrta harakati “I”-kasra boʻlsa, u vaqtinchalik maʼnoni anglatadi: خزن, فرح, مرض, سود, آدم

3) Agar feʻlning oʻrta harakati “u” – damma boʻlsa, doimiylik maʼnosini anglatadi. M: حسن, كبير, صغر, صلح

Shunday qilib فعل - faala vaznidagi feʻllar faollik, فعل-faila vaznidagi va فعل-fula vaznidagi feʻllar esa oʻrtacha faollik maʼnolarini anglatadi.

Oʻtimli feʻllar oʻzi bilan bogʻlangan soʻzni T.k da turishini talab etadi va u vositasiz toʻldiruvchi deb ataladi. Demak, oʻtimli feʻl vosita, yaʼni koʻmakchilarsiz muayyan soʻz bilan bogʻlanadi. M:

Men hatni yozdim

كتبت الرسالة

Shunga oʻhshagan jumlar hech qanday vositaga muhtoj emas.

Men uni bayram bilan tabriklayman .

أرحبه بالعيد

Bu jumladagi feʻlga "ه"- hu birikuvchi olmoshi qoʻshilib u toʻldiruvchi vazifasini oʻtayapti. Ana shu "faula" vaznidagi feʻllardan asliy sifatlar yasaladi.

بعد - بعيد

كبر - كبير

قرب - قريب

صغر - صغير

حسن - حسن

جهل - جاهل

O'timsiz fe'llar o'zi bog'langan so'z bilan albatta biror vosita (predlog) yordamida bog'lanib o'timsizlik ma'nosini anglatadi. Shuning uchun ham o'sha so'z vositali to'ldiruvchi deb ataladi.

O'timsiz fe'llar turli ko'makchilar yordamida boshqa so'zlar bilan bog'lanadi. Unday vositalar bittadan bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Predlog-ko'makchilarning ishlatilishi ko'pincha oldinda turgan so'z bilan aniqlanadi. Ba'zi fe'llar faqat muayyan predloglar bilan kelib, ular fe'lni keyingi so'z bilan bog'laydi. Arab tilidagi fe'llar olib kelayotgan ko'makchilar tarjimada o'zbek va rus tilidagi old ko'makchilar bilan bir hil ma'noda bo'lmasligi mumkin. M: "o'tmoq" fe'li بـ bi ko'makchisi bilan kelib, "yonidan o'tmoq" ma'nosini bildiradi. Rus tilida esa "proxodit mimo" ma'nosini anglatadi. Yoki o'zbek tilidagi "yaqinlashmoq" fe'li من- min ko'makchisi bilan ishlatiladi. اقترَب من، الي

تَكَلَّمَ fe'li في predlogi bilan keladi. Kelmoq وصل fe'li doim ألي ko'makchisi bilan kelsagina kutilgan ma'noni anglatishi mumkin.

Arab tilida shunday fe'llar borki, ular ko'makchilar bilan ishlatilsada, o'zbek va rus tillariga ko'makchilarsiz tarjima qilinadi. M: "mudofaa, himoya qilmoq". يدافع الجندي عن الوطن Askar Vatanni himoya qiladi.

Tarjimadan ayonki, عن ko'makchisining tarjimaga hech qanday ta'siri yo'qday ko'rinadi. Huddi عن الوطن iborasi vositasiz to'ldiruvchi shaklida kelgandek.

Huddi shu ma'noda ishlatiladigan fe'llar quyidagilar:

Bajarmoq, qilmoq (nimani?)	قام ب
Olib kelmoq (nimani?)	جاء ب
Topmoq (nimani ?)	كشف عن
Olmoq (nimani?)	حصل علي
Salom bermoq (kimga?)	سلم علي
Suzmoq (nimani?)	شعر ب
Tilamoq (nimani?)	رغب في

"U johil emas" ما هو بجاهل fe'li va ما so'zi ham ب ko'makchisini talab etadi. "u kiritdi", هبط ب "u pastga tushdi" "Sen yalqov emassan" دخل ب "ست بكسلان" "U johil emas"

Ba'zi fe'llar yuqoridagi fe'llarning aksini anglatadi, ya'ni ular arab tilidagi biror ko'makchini talab etmasada, o'zbek va rus tillarida biror ko'makchini talab etadi. Tarjimada bu holat ko'rinadi. (Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983)¹

Kurashmoq (kim bilandir)	صارع
Yozishmoq (kim bilandir)	كاتب
Ketmoq (qayerga?)	غادر
O'ynamoq (kim bilandir)	لعب
Kirmoq (qayerga?)	دخل
Ko'tarilmoq (qayerga?)	صعد

Shunday fe'llar borki, ular ham o'timli, shu bilan birga o'timsiz ma'nolarda kelib, ko'makchilarini talab qilmaydi lekin rus va o'zbek tiliga tarjima qilinganda predlog talab qiladi: M: دخل fe'li predlogsiz o'timli fe'l singari ishlatiladi.

Quyida دخل fe'li 4 ta ko'makchi boshqarilishiga misollar beriladi :

Bundan tashqari u ko'makchilar bilan ham keladi. M:



Aralashmoq, kirib bormoq	دخل في	
Ustiga kirib bormoq	دخل علي	
Kiritmoq, kirgizmoq	دخل ب	
U universitetga kirdi	دخل الجامعة	
U kim bilandir muzokaralarga kirishdi	دخل معه في المفاوضات	

Bu jumladagi دخل fe'li مع ko'makchisi bilan kelib, "kirishmoq" ma'nosida ishlatilgan. Bu fe'ldan yasalgan دخل masdari gapda ishtirok etsa, baribir o'zi yasalgan fe'lning ko'makchisini talab qilaveradi.

M: U bu ishga aralashgan edi. كان له دخل في هذا الأمر

Fe'llar ko'makchilarning boshqaruviga qarab o'z ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

1.Shagal V.E. i dr. Uchebnik ar.yaz. M.1983 49b.



(Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983 661b)¹

Bu misollarda ko'makchilar so'z yasash vazifasida kelyapti. Ba'zi fe'llar turli predloglar bilan kelsada, o'zining asosiy ma'nolarini o'zgartirmaydi M:

Yaqinlashmoq (kingadir,nimaga)	تقرب ألي, من
Ziyoda qilmoq (nimani)	زاد علي, عن
Uylanmoq (kinga?)	تزوج من, ب
Turmushga chiqmoq(kinga?)	تزوج من, ب
İshonmoq, suyanmoq (kinga, nimaga?)	وثق ب, من
Eshitmoq , quloq solmoq (kinga,nimaga ?)	استمع ألي, ل

Ba'zi fe'llar o'zining ma'nosini o'zgartirmagan holda ko'makchili yoki ko'makchisiz ishlatilishi mumkin. M:

1.Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983 661b

Yubormoq (kimni, nimani?) بعث ب

Otmoq (nimani?) فذق ب

La'natlamoq (kimni?) لعن علي

Fe'ldan yasalgan sifatlar, sifatdoshlar va masdarlar o'zi qaysi fe'ldan yasalgan bo'lsa, so'zni o'sha fe'lning ko'makchisi vositasida boshqaradi.

...ga yaqinlashuv أقترب – أقترب من

Tegishli bo'lmoq خصّ ب – خصّ ب

Himoyachi bo'lmoq مدافع عن – مدافع عن

Ba'zi fe'llar xuzuridagi ko'makchilar o'sha fe'llarga shunday moslashib ketgan-ki, mazkur ko'makchisiz o'sha fe'lning qo'llanishi mumkin emas. M: حصل fe'li ko'makchisiz qo'llanishi mumkin emas.

O'timsiz fe'llarni yod olganda albatta ularning ko'makchilari bilan birga yod olish lozim. Aks holda u fe'llarning asil ma'nosi o'zgarishi mumkin. M: حصل fe'lini علي ko'makchisiz qo'llaydigan bo'lsak, u "sodir bo'lmoq, amalga oshmoq, ro'y bermoq, boshdan o'tmoq" ma'nolari kerak bo'lsa, unda ل ko'makchisi bilan ishlatishga to'g'ri keladi. Huddi shunday holat boshqa ko'makchili fe'llar bilan ham ro'y berishi mumkin. Ko'pincha xarakat ma'nosini anglatuvchi fe'llar albatta ko'makchilar bilan keladi¹.

Bunday ko'makchilarni Lebedev V.T. "pervichniye i vtorichniye predlogi"(Birlamchi va ikkilamchi ko'makchilar) deb ataydi.

Chizib chiqmoq, chizib o'tmoq تسرّب

Biror tomonga yo'nalmoq أتجه نحو

Bosib olmoq أحتلّ

Ifoda etmoq أعرب

Agar خرج fe'lining masdari ب ga خرج ko'makchisi qo'shilsa uning ma'nosi o'zgarad. M: Unga uni olib chiqishiga buyurdi أمر باءخراجه:

1. Lebedev V.T. Tyureva L.S. Prakticheskiy kurs literaturnogo ar.yaz. M.2005 284-295 b

buyurmoq

أمر ب

Pensiya hisobiga yashamoq عاش علي(من) المعاش

Tobiy bo'lmoq, qaram bo'lmoq أستسكن ل

سكن fe'lining ma'nosi "yashamoq", lekin u الي ko'makchisi bilan kelsa "tinch bo'lmoq, sokin bo'lmoq" ma'nolarini anglatadi. أليه

Ba'zan fe'lga ikkita ko'makchi hamroh bo'lishi mumkin.

Talabalar bugun kutubhonaga ohista bordilar ذهب الطلاب اليوم الي المكتبة ببطنين

Jumlada birinchi الي ko'makchisi bevosita fe'lni boshqarayotgan bo'lsa, ikkinchisi hol bo'lib kelib, ish harakatning qanday bajarilganiga ishora qiladi. Jumladagi الي ko'makchilari ayni shunday ma'nolarni anglatiyapti. Eng ko'p qo'llaniladigan ب ko'makchisi قام fe'li bilan kelsa "bajarmoq, qilmoq" ma'nolarini anglatadi.

Agar قام fe'li ضد ko'makchisi bilan kelsa, "qo'zg'almoq" ma'nosini anglatadi¹

لقد قام الشعب العربي ضد الاستعماري

Arab xalqi mustamlakachilarga qarshi qo'zg'algan edi.

قام fe'lidan yasalgan قيام masdari va قويم – qoimun sifatdoshi o'zi yasalgan fe'lni bi ko'makchisi qanday boshqargan bo'lsa, bu so'zlarni ham huddi shunday boshqaradi.

انّ القيام بتمارين رياضة يقوي الجسم

Badantarbiya bilan shug'ullanish bilan shug'ullanish jismni kuchlik qiladi.²

Boshlamoq va davom etmoq mazmunidagi fe'l bilan bir tarkibni tashkil etgan asosiy fe'l – aniq shaklga qo'yilgan masdar bilan almashtirilishi mumki. Bunda boshlanish yoki davom etish fe'li va masdar o'rtasida ف ko'makchisi qo'yiladi.

U yozishni boshladi

بدأ في الكتابة

Arab tili grammatikasida ko'makchilarning o'rni sezilarlidir lekin ularni o'zbek tilidagi old ko'makchilariga o'hshatib bo'lmaydi. Ular o'rtasida katta farq bor .

1. Talabov E. arab tili T.1992 216b.

2.Talabov E. arab tili T.1992 216b.

O'zbek tilida –da , -dan, teppasida, orqasida, ichida, ustida, haqida, uchun, -ga, tegishli , huzurida kabi ko'makchilar otlar bilan keladi.

1.3 Fe'liy boshqaruvda eng ko'p ishlatiladigan ko'makchilarning tasnifi va ma'nolari

Yordamchi so'z turkuning kattagina qismini predloglar-ko'makchilar deb ataluvchi so'zlar tashkil etadi. Arab tilida kelishiklar soni juda oz bo'lgalligi sababli, predmet, voqea hodisaning vaqtga, o'rniga munosabati va boshqa turli munosabatlar asosan ko'makchilar yordamida ifodalanadi.¹

Agar ko'makchilar fe'llar bilan kelsa, fe'l anglatgan ma'noni to'ldiradi va uni boshqaradi.

Arab tilidagi ko'makchilar esa o'zbek tilidagi Qaratqich , O'rin payt, Jo'nalish va Chiqish kelishiglarining ma'nolarini bildiradi. Demak , o'zbek tilidagi Bosh va Tushum kelishiglaridan tashqari 4 ta kelishiklar vosita ya'ni, ko'makchi ro'lini o'ynaydi.

Qaratqich kelishigi ma'nosini **ل في ب** ko'makchilari anglatadi.

Jo'nalish kelishigi ma'nosini **ل, نحو الي** ko'makchilari anglatadi.

O'r. Payt. kelishigining manosini **بين, جنب, عند, وراء, أمام, قرب, علي, في** kabi ko'makchilari anglatadi.

Chiqish kelishigi ma'nosini **من, عن** ko'makchilari anglatadi.

Bunda “kimni, nimani?” so'roqlariga javob bo'ladigan fe'llar T.k. ni talab qilsa, shu so'roqqa javob bo'lmaydigan fe'llar esa, ko'makchilarni talab qiladi.

Yuqoridagi misollardan shu narsa ma'lumki, o'zbek tilida “bo'lmoq, qilmoq” kabi yordamchi fe'llari bilan ishlatiladigan murakkab fe'llar haqida yagona qoida yo'q. M: “ma'qul bo'lmoq” fe'li “nima bilan “ degan savolga javob bo'lib, arab tilida **ب** ko'makchisini talab qilgandek bo'ladi. Lekin “amal qilmoq” fe'li “nimaga” so'rog'iga javob bo'lib, arab tilida **ل** ko'makchisini talab qilgan bo'lib ko'rinadi. O'zbek tilida bunday ma'noda ishlatiladigan arabcha so'z +o'zbekcha ko'makchili fe'llardan hosil bo'lgan murakkab fe'llar juda ko'p va ularning ba'zilar albatta arab tilidagi singari ko'makchilarni talab qiladi. O'zbek tilida ham ba'zi arabiy so'zlarning

1. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki sravnitelno-istoricheskoy osveshenii M. 2001 445b

o'zbekcha yordamchi fe'llar bilan kelib arabcha ko'makchilarga ishora etuvchi ma'nolarni anglatib, o'shanga mos so'roqlarga javob bo'lib keladi. M: mashhur bo'moq(nima bilan , arabcha ب ko'makchisi), istifoda etmoq (nimadan, arabcha من ko'makchisi) , xabar bermoq (nima haqida, arabcha عن ko'makchisi), amal qilmoq (nimaga, arabchasi ل ko'makchisi), sarf etmoq(nimani, arabchasi T.k.), iste'mol qilmoq(nimani ,arabchasi T.k.), doxil bo'lmoq (qayerga, arabchasi الى ko'makchisi). Misollardan shu narsa ayonki, agar fe'l "kimni nimani" so'roqlariga javob bo'lsa, u Tushum kelishigini talab etadi va fe'l bilan bog'langan so'z doim vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Ko'makchilar arab tilida 2 hil bo'ladi, alohida yoziluvchi va birikib yoziluvchi ko'makchilar. Shuningdek , kelishik ma'nosini anglatuvchi ko'makchilar ham amalda keng qo'llaniladi. Bizning tadqiqotga tortilgan ko'makchi- bu old ko'makchilardir.

Fe'llarning qanday ma'noni anglatishi u bilan kelayotgan ko'makchiga bog'liq. Shuning uchun fe'l bilan eng ko'p qo'llanilayotgan ko'makchilar ma'nolarini ko'rib chiqish lozim. Makon va zamon munosabatlarini bildiruvchi تحت, فوق, امام, وراء, في kabi ko'makchilari va maqsad va sababni bildiruvchi ko'makchilar bilan bir qatorda yana fe'llarni boshqarish vositasi sifatida ishlatiladigan ko'makchilar ham bor. Bunda fe'lning ma'nosi u bilan kelayotgan ko'makchiga bog'liq. Shuning uchun fe'l bilan kelayotgan ko'makchilarning ma'nolarini bilish muhimdir. Fe'llarning ko'pincha qaysi predloglar-ko'makchilar bilan kelishi muhimdir. Quyida odatda, aksariyat fe'llar bilan ko'p qo'llanilib va ularni boshqarib kelayotgan ko'makchilar ma'nolari beriladi.

ب ko'makchisi

1. Vosita, qurol ma'nosida, ish harakatni bir vosita orqali bajarilishini anglatadi. U qalam bilan yozdi

كتب بقلم

U ko'zi bilan ishora qildi

أشارت بطرف العين

2. Yaqinlik, birgalik, hamrohlik ma'nolarini anglatadi.

U uning yonida o'tirdi

جلس به

U o'z oilasi bilan ketdi

سار بأهله

3. Harakat usulini anglatadi

Eng yahshi yo'l bilan

بأحسن وجه

4. Ish harakatning vaqtini va makonini anglatadi.

Men uni eshik oldida uchratdim

لقينته بألباب

5. Sabab yoki asosni anglatad.

U o'z aybi bilan halok bo'ldi

هلك بذنبه

Qur'oni Karim oyatalarida ham ب ko'makchisi ishlatilganligini ko'rish mumkin.

قل يعمل علي شاكلته فربكم أعلم بمن هو أهدى سبيلاً

Ayting: har kim o'z ravishiga qarab amal qilur. Robbingiz kim to'g'ri yo'lda ekanligini yahshi bilguchidir.

Bu oyati karimada ishtirok etgan أعلم بمن birikmasidagi أعلم orttirma darajadagi sifat bo'lib, ب predlogi bilan kelib “eng yahshi bilguvchi” ma'nosini anglatadi.

لا تحرك به لسانك لتعجل به

(Ey, Muhammad, Qur'onni) tezroq (todlab) olish uchun tilingizni u bilan qimirlatmay qo'ya qoling.

Bu oyati karimada حرّك fe'li ham ب , عجل fe'li ham ب ko'makchisini olib kelyapti. 1-fe'l “harakatlantirmoq, qimirlatmoq “ ma'nosini, ikkinchi fe'l “tezlash” ma'nosini anglatiyapti.

6. Vaqt o'lchami, masofani anglatadi.

Shahar tashqarisida 1 km. masofada

وراء المدينة بكيلومتراتٍ

7. Xarid qilish va sotish bahosi ma'nolarida.

Bu kitobni qanchaga sotib olding?

بكم اشتريت هذا الكتاب؟

Men bu kitobni 20 so'mga sotib oldim أشتريت هذا الكتاب بعشرين سوما
Men uni 100 dinorga sotib oldim أشتريت بمائة دينار

Auksionda sotmoq باع بالمزاد

8. Qasam ma'nosida "Xudo haqqi!" بالله !

Sening boshing bilan qasam ichaman برأسك!

9. O'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi.

Turg'izmoq, ko'tarmoq, rivojlantirmoq نهض ب

Olib kelmoq جاء ب

(Bu ma'lumotlar V.G. Levedev ning "Prakticheskiy kurs ar.yaz. "Vostok-Zapad" M. 2004 kitobidan olindi)¹

O'timsiz fe'llar biror ko'makchiga muhtoj bo'ladi. Oddiy fe'l biror ko'makchi bilan kelsa, ish xarakatning ma'nosi kuchayadi, ma'no konkretlashadi M:

Olib ketmoq, olib bormoq ذهب ب

Bu misolda ذهب fe'li "bormoq" ma'nosini anglatgan bo'lsa, ب ko'makchisi qo'shilgandan keyin bu fe'lning ma'nosi kengaydi, ya'ni "nimani olib ketti" so'rog'iga javob bo'lib qoldi. Bu esa qayerga so'rog'iga qaraganda ancha konkret ma'noni anglatadi. Agar ذهب ب bilan ذهب الي o'rtasidagi qanday farq mavjudligini aniqlaydigan bo'lsak, ikkinchisi qayergadir bormoq, birinchisi esa nimanidir olib bormoq ma'nolarini anglatadi. Albatta ب ko'makchisi fe'lni boshqaruvida gap ko'p. Bunda ب ko'makchisi fe'lga ish harakatni bajarishda qo'shimcha ma'no kasb etayotganligining guvohi bo'lamiz.

Ayniqsa ب ko'makchisining o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish xususiyatini alohida ta'kidlash zarur.

ثمّ حملهُ بأسنانه و ذهب به الي الغابة و أكله

So'ngra u tishlari bilan uni ko'tarib o'rmonga olib ketdi va uni yedi. ²

1. V.G. Levedev ning "Prakticheskiy kurs ar.yaz. "Vostok-Zapad" M. 2004

2. Xolidov B.Z. Uchebnik ar.yaz.T.1981,238b

Bu jumlada ب ko'makchisining ham vosita ma'nosidagi بأَسْنَانِهِ va ذهب به o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish xususiyatlari namoyon bo'lyapti. Quyidagi jumlada ب ko'makchisi "bilan" ma'nosida kelayapti, chunki ب ko'makchisi o'timli fe'l huzurida kelsa, doim shu ma'noda qo'llaniladi M:

يشتغل شباب جمهوريتنا بالريضة خمسين بالمئة

Respublikamiz yoshlarining 50 foizi sport bilan shug'ullanadi.

Yuqorida keltirilgan qoidaga ko'ra ب ko'makchisi bilan keladigan alohida fe'llar bor.

Ma'lumki, امر fe'li ب predlogi bilan keladi va u "buyuruq bermoq, buyurmoq" ma'nolarini anglatadi. Quyidagi jumlada ana shu fe'lning predlog bilan kelishini ko'ramiz.

Agar sen afsuslansang va o'z so'zingdan qaytsang (yahshi) agar bo'lmasa, teringni shildirishga buyuraman. ان تمت و رجعت عن قولك و إلا أمرت بسلك

Agar ب predlogini asl ma'nosi bilan tarjima qilganda "sening tering bilan" ma'nosini anglatar edi. Lekin bunday tarjima noto'g'ri bo'lur edi.

حصب fe'li ب ko'makchisi bilan kelsa , otmoq, yubormoq ma'nolarini anglatadi. Buni quyidagi jumlada ko'ramiz.

U doimo unga la'nat va haqoratlar yuborar edi. قد كان يحصب اليه باللعنات و الشتائم

Bu jumladagi ب ko'makchisi حصب fe'li bilan kelib ob'yektlarga qo'shilib ketyapti. Bu yerda ب ko'makchisi o'zining "bilan, vositasida" birlamchi ma'nosida qo'llanib kelyapti.

Shuningdek شهد fe'li ل ب ko'makchilari bilan keladi. Agar ب ko'makchisi bilan kelganda "guvohlik bermoq, shohidlik bermoq" ma'nosini anglatsa ل ko'makchisi bilan kelganda "qarshi ko'rsatma bermoq" ma'nosini , علي ko'makchisi bilan kelganda esa "ko'rsatma bermoq" ma'nolarini anglatadi.

عاد qaytmoq, yangittan kelmoq fe'li ب predlogi bilan kelsa qaytarmoq ma'nosini anglatib o'timli fe'lga aylanadi.

في ko'makchisi

(bu ma'lumotlar Grande kitobining 405-b. dan olindi)

1) في ko'makchisining "haqida" ma'nosida ishlatilishi .

U bu haqda o'yladi افكر في ذلك

Unda tarix haqida kitob bor. عنده كتاب في التاريخ

2) Sabab ma'nosida

Men buni qarzim borligi sababli sotdim بعت ذلك في ديني

3) Ko'paytiruv ma'nosida

U 4ni 5 ga ko'paytirdi ضرب اربعة في خمسة

4) Xohish ma'nosida

Xohlaysizmi هل لكم في أن

U buni xohladi رغب في ذلك

5) Gapirish, so'zlashuv ma'nosida

U har qanday mavzuda gaplashadi يتكلم في كل موضوع

6) Biror narsaning ichiga biror narsani qo'yish

U kitobni shkafga qo'ydi. وضع الكتاب في الخزانة

1. Mashhur rus arabshunos olimi Grande V.M.¹ o'zining kitobida قرأ fe'lining في ko'makchisi bilan kelishiga misollar keltirgan.

U hikmatlar kitobini o'qiganda... وفيما هو يقرأ في كتب الحكمة

Shuningdek arab tili grammatikasida juda kam uchraydigan holat ya'ni predlogning fe'ldan oldin kelishiga ham olim misol keltirgan

U: "sen buni bilasanmi" dan ortiq gap aytmadi. لم يزد علي أ تعرف؟

1. Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitelno-sitoricheskom osvishshenii M. 1998 505b.

Bu jumlada ishtirok etgan **زيد** fe'li doim **عن** va **علي** ko'makchilari bilan birga kelib, o'zbek tiliga ko'proq, oshiq ma'nolarda tarjima qilinadi. Jumladagi oshib ketmoq **علي** -لم يزد **علي** (oshmadi) ning kelishi qoida bo'yicha to'g'ri hissoqlanadi, lekin **يا**'ni **علي** dan keyin fe'lining kelish holati arab tilida kam uchraydi. Quyidagi jumlada ham **قبل** ko'makchisidan keyin fe'l keladi.

Sendan fikrlar o'tganga qadar

قبل تفوتك الفكر

“Boshlamoq va davom etmoq” fe'llari ko'pincha **في** ko'makchisi bilan keladi.

Boshlamoq (nimani)

بدأ في , شرع في

Ular gaplasha boshladilar (nimani?)

هم بدؤوا في التّكلم

U yozishni boshladi (nimani?)

شرع في الكتابة

Yuqoridagi “boshlamoq” fe'llarining har biri o'zi bilan **في** ko'makchisini olib kelsada, ular “nimani” so'rog'iga javob bo'lib, o'timli fe'l ma'nolarini anglatayapti.

Biz jimgina yoza boshladik

شرعنا في الكتابة بالصّمة = شرعنا نكتب بالصّمة

U teoremani isbotlay boshladi.

بدأ في برهن النظرية = بدأ يبرهن النظرية

Talabalar matnni o'qishda davom etishdi.

ظّل الطّلاب في قراءة النّصّ = ظلّ الطّلاب يقرؤون النّصّ

Yuqoridagi 3 ta jumlada ishtirok etgan **بدأ** “boshlamoq” fe'lini hamda **ظّل** davom etmoq fe'llari **برهان** va **الكتاب** so'zlarini boshqarib kelayapti.

1-jumlaning o'ng tomonidagi **في** ko'makchisidan keyin kelgan so'z masdar bo'lsa, chap tomonidagi jumlada uning o'rnida fe'lining o'zi kelayapti. Lekin ikkala fe'lining ham ma'nosida farq yo'q. 2-jumlada ham huddi shu tartib saqlangan.

ل predlogi

1. Biror narsaga ega bo'lish, tegishlilik ma'nosini.

Bu kitob Amrga tegishli

هذا الكتاب لعمر

Zayd uylarining biri

بيت لزيد

Amin ar-Rayhoniyning “Arab podsholari” kitobi كتاب ملوك العربي لا مين الریحاني

2. Ish harakatni to’ldiruvchiga o’tishi.

Men Hasanga dedim

قلت لحسن

Sen mendan 100 dinor olishing kerak لك عليّ مائة دينار

1. ”Kimningdir foydasiga o’tishi” ma’nosida

Sen mendan 100 dinor olishing kerak لك عليّ مائة دينار

1. Sabab ma’nosini

Faqat oilaviy masalalar sababli لمسائل عائليّة محضه

2. Maqsad ma’nosida.

Men uni ziyorat qilish uchun bordim

ذهبت لزيارته

الي predlogi

1. Qandaydir makonga harakatni anglatadi

U uyga yo’naldi

توجّه الي الدار

2. Qandaydir manzilga yetgallikni

U shaharga yetib keldi

وصل الي المدينة

3. Ish harakat vaqtini

Juma kunigacha

الي يوم الجمعة

4. Ish harakatning obyektga qaratilganligi

U unga taom taqdim etdi

قدّم اليه طعاماً

5. Ba’zan ل predlogi ma’nosida keladi.

Menga ko’proq bu yoqadi

هذا أحبّ اليّ

علي predlogi

1. Biror predmet ustida.

Stolining ustida علي الطّاوية

2. Biror predmetning ustiga ma'nosida.

U yerga tushdi وقع علي الأرض

3. Biror kishiga qarshi harakat

U sultonga qarshi chiqdi خرج علي السلطان

4. Burchni, zaruriyatni.

Men 100 dinor qarzman عليّ مائة دينار

5. Ikki mavjud tushuncha, voqelikning bir biriga qarama-qarshilik ma'nosini.

U buni yoshi kichikligiga qaramasdan bajardi. عمل ذلك علي صغر سنّه

6. "biror sababga qaramasdan" ma'nosida

O'zining kuchli bilimdonligiga qaramay bu masalada hech narsa eshitmadi.

لم يسمع شيئا عن هذه المسألة علي سعة الطّلاعه

Ularning turli navlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar علي اختلاف أنواعها

7. Imkoni boricha, iloji boricha, imkoniyatiga qarab, mumkun qadar ma'nosida

Ularning aytishicha علي ما يقال

U ko'makchisining qo'llanish joylari ko'p u eng samarali ko'makchi hisoblanadi.

U ba'zan birikuvchi olmoshga qo'shilib fe'l ma'nosini ham anglatishi mumkin.

M:

U o'zining oti o'rniga tuyani oldi استعاض علي فرسه بناقة

Bu jumlada علي va ب ko'makchilari ishtirok etib علي ko'makchisi "badal-almashtirish" ma'nosida ishlatilyapti

qo'rqma. لا بأس عليك = لا عليك

Sen bunda mening guvohimsan

أنت عليّ بذلك

U undan o'rgandi

قرأ عليه

Bu ikkala jumlada ham fe'l yo'q lekin علي predlogining fe'l ma'nosini angelayotganligining guvohi bo'layapmiz. Bu jumlada علي ko'makchisi sabab, asos ma'nolarida kelyapti.

O'g'il (o'ldirilgan) otasi uchun namoz o'qilishiga yo'l qo'ymadi va do'st-do'stlaridan qoldi.

فلا ولدٌ يُقيم علي أبيه وقد هرب الصّديق عن الصّديق

Bu jumlada ishtirok etgan اقام fe'lining علي ko'makchisi bilan kelib, "tashkil etmoq, yo'l qo'ymoq" ma'nolarini anglatadi. Jumlada ana shu fe'l أبيه علي يُقيم shaklida kelib "u(o'ldirilgan) otasiga namoz o'qilishiga yo'l qo'ymadi" deb tarjima qilinadi, chunki arab tili grammarikasi qoidasi bo'yicha bu to'g'ri hisoblanadi.

Bazi misollarda علي ko'makchisi fe'l ma'nosida ham keladi. M:

Sen haqsan

الحقّ معك

Sen no haqsan

الحقّ عليك

Ishchilar maoshni bugun oladilar

يحصل العمّال علي الرّتبة اليوم

Bu jumlada ishtirok etgan حصل fe'lini علي ko'makchisi bilan birga الرّتبة اليوم so'zini boshqariyapti. Agar bu fe'l ko'makchisiz ishlatilganda "yuz bermoq, ro'y bermoq" ma'nolarini anglatgan bo'lur edi. Demak gapdagi kesim "bo'lmoq, olmoq" ma'nolarini anglatishi uchun علي ko'makchisining bo'lishi shart ekan.

Qur'oni Karim va Hadisi sharifda ham salom berish va salomga alik olish xususida aytilgan hikmatli so'zlarni ko'pchilik biladi. Arab tilidan kirib kelgan salom va uning chuqur ma'nosi السلام عليكم va عليكم السلام iboralarida o'z aksini topgan. Arabcha fe'l سلم "salom bermoq" ma'nosini anglatib u albatta علي ko'makchisi bilan kelishi shart, chunki berilayotgan salom kimgadur, kimning boshi uzra qaratilgan bo'lishi kerak. Agar biz علي predlogini tushirib qoldirsak السلام so'zining o'zi "chala" salom bo'lib, bunday salomning egasi yo'q, kimga qaratilgani nomalum bo'lib, oqibatda salom qaratilgan insonni behurmat qilishga olib keladi. Bu "salom" so'zi masdar bo'lsada علي ko'makchisiz ishlatilmaydi. Agar bu so'zdan oldin يا so'zini qo'ysak, يا سلم عليه shakliga kirib "u qanday yahshi odam" ma'nosini anglatadi. (Baranov 370b)¹.

1. Baranov X.K. Arabskiy-russkiy slovar M.1985 370b.

Agar mazkur fe'ldan yasalgan سلامة so'zidan oldin مع ko'makchisini yozsak salomning zidi ya'ni مع السلامة "xayr" ma'nosini anglatadigan so'z birikmasi hosil bo'ladi. Yuqoridagi misollardan shu narsa ko'rinyaptiki, arab tilida predloglarning jumladagi o'rni benihoya ahamiyatlidir.

عن predlogi

1. Uzoqlashish, biror manzildan harakat ma'nosida

U mamlakatdan jo'nab ketdi.	سافر عن البلد
U unga buni yo'l qo'ymadi	منعه عن ذلك
U ishlashdan bosh tortdi.	أضرب عن العمل

2. Biror narsadan bo'linish, chalg'itish ma'nosida.

U uni bundan chalg'itdi.	شغله عن ذلك
U safar qilish uchun zaif.	هو ضعيف عن السفر

3. Hajm yoki hususiyatiga ko'ra farqi

U shahardan kichik, qishloqdan esa kattadir.	يصغر عن المدن و يكبر عن القرى
--	-------------------------------

4. Almashtirish ma'nosida.

U u uchun urush qildi.	قاتل عنه
------------------------	----------

5. So'zlashuv ma'nosida

U mendan nimanidir so'radi.	سألني عن شيء
-----------------------------	--------------

6. Ma'lumotlar manbayini bildiradi

Abu Ishaq menga Said nomidan gapirib berdi. حدّثني أبو إسحاق عن سعيد

عن ko'makchisi كشف fe'li bilan kelib "yechmoq" ma'nosida ham keladi.

U o'zining yuzini ochdi	كشف عن وجهه
-------------------------	-------------

Katta qo'shin orqasidan chang tarqaldi	انكشف الغبار عن جندٍ عظيم
--	---------------------------

U yarqiragan (tishini) ko'rsatib jilmaydi	و تبسم عن ألمع
---	----------------

Grande V.M.¹ning kitobidan olingan quyidagi kitoblar عن predlogining qo'llanishiga doir

1. Bu jumlada ko'makchi fe'ldan oldin kelyapti.

Men bu ishni sening so'zlaring uchun qilmayman لا أفعل ذلك عن قولك

U ikkala o'g'lini qoldirib vafot etdi مات عن ابنين

Bu jumlaning o'qib arab tilining imkoniyatlari boy til ekanligiga yana bir bor iqrar bo'lasan kishi.

Quyidagi jumlada عن va علي predloglari و انتصروا fe'llari bilan otlarni boshqarib kelayapti

Qo'shinimiz jangchilari fashizmni jangda yengdilar, chunki ular o'z suyuqli vatanlarini himoya qilgan edilar.

ان أفراد جيشنا انتصروا علي الفشستية في القتال لأنهم دفعوا عن وطنهم الحبيب

Bu jumladagi birinchi انتصر fe'li علي ko'makchisi bilan birga kelib "yengmoq, ga'laba qilmoq" ma'nosini anglatgan bo'lsa, ikkinchi fe'l دفع esa عن ko'makchisi orqali boshqarilib "himoya qilmoq, mudofaa qilmoq" ma'nolarini anglatib, otni boshqaryapti.

من predlogi

1. Biror narsaga yoki biror kishiga yaqinlashish ma'nosida.

U unga yaqinlashdi. اقترب منه

U uning yaqiniga keldi. تقدم منه

2. Sabab, vaj ma'nosida.

U qandaydir kasallikdan vafot etdi. مات من مرضٍ

3. Umumdan bir qismini ajratish ma'nosida.

Palma va uzumdan iborat bog'. جنة من نخيل و أعنابٍ

4. Bir butunlikning bir qismi

1. Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitelno-sitoricheskoy osvishshenii M. 1998 403 b

U boylikning bir qismini oldi . أخذ من المال

5. inkor so'zi bilan birga kelib kuchli inkorni anglatadi.

Hech kim, birorta ham ما من أحد

بين predlogi

1. Ikkita tushuncha va predmetni birlashtirish

U ikki barmog'ini birlashtirdi. جمع بين اصبعيه

2. O'zaro harakat ma'nosini

Ular bir-birlari bilan gaplashdilar. تكلموا فيما بينهم

3. Ikki holat o'rtasida ikkilanish

Men uyqu bilan bedorlik o'rtasida bo'ldim. و انا بين نائم و يقظان

4. Predmet va tushunchani farqlash ma'nosida

U ularni farqladi. فرق بينهم

مع predlogi

1. Birgalik ma'nosida

U u orqali kitobni yubordi. أرسل معه كتابا

2. Vaqtga qarab ish harakatni sodir etish

U quyosh chiqishi bilan jo'nadi. ذهب مع طلع الشمس

3. Qarama-qarshi tushunchalarni o'zaro hal qilish

Ularning fikrlari o'rtasida ixtilof bo'lsada, kelishib oldilar اتفقوا مع اختلاف آراءهم

عند predlogi

1. Ish-harakatning biror narsa yoki kishi yaqinida sodir bo'lishini

Men ularning huzurida o'tirdim جلت عندهم

2. Ish-harakatning vaqtini

Imtihonlarda insonni yo hurmat, yoki kamsitish kutadi عند الإمتحانات يكرم المرء أو يهان

دون predlogi

1.... dan, tashqari, ...siz qo'shimchalari ma'nosida

Misr va boshqa mamlakatlar

مصر وما دونها من البلاد

1.4 Majhul darajadagi fe'llarning ko'makchilar bilan kelishi

Majhul darajadagi sifatdosh ko'makchi tomonidan boshqarilganda u moslashgan aniqlovchi shaklida kelib doim m.z. va birlikda turadi. Bu sifatdosh o'zining aniqlanishi bilan kelishikda va holatda moslashadi, jinsda va sonda esa ko'makchiga qo'shilgan birikuvchi olmosh bilan moslashadi.

ishonmoq, ¹ وثق ب	}	ishonchga loyiq kishi رجل موثق به
		ishonchga loyiq ikki kishi رجلان موثق بهما
		ishonchga loyiq kishilar رجال موثق بهم
		ishonchga loyiq ayollar نساء موثق بهن

Bu jumlada ishtirok etgan موثق sifatdoshi o'zi yasalgan fe'lni boshqarib kelgan ب ko'makchisi xar doim u bilan birga keladi.

Majhul darajada turgan fe'llar ko'pincha ب predlogini olib keladi M:

Hech kimga uning uyiga kirishga ruhsat berilmaydi لا يسمح لأحدٍ بدخول غرفته

Bu jumlada fe'l majhul darajada turganligi uchun ب ko'makchisidan foydalanilgan.

1. Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitel'no-sitoricheskoy osvishshenii M. 1998

Agar “uning uyiga barchaga kirish mumkin” desak, jumla quyidagicha bo’ladi
يمكن الدخول للجميع الي غرفته

Uning uyiga barchaga kirish ruhsat etiladi demoqchi bo’lsak jumla quyidagi shaklda bo’ladi. يسمح لكل دخول غرفته

Ba’zan ikkita va uchta ko’makchilardan hosil bo’lgan qo’sh ko’makchili fe’llar so’zlarni boshqarishi mumkin. Bunda fe’l majhul darajada turadi.

U tog’ning tepasidan tushdi نزل من فوق الجبل

Boylik yerning ostidan olinadi. تستخدم الثروة من تحت الأرض

Ba’zan qo’sh predloglar aniq darajadagi fe’l huzurida ham kelishi mumkin.

Ular tabiat qo’ynida bo’ldilar كانوا في داخل الطبيعة

Agar ish-harakatni amalga oshiruvchi ega gapda mavjud bo’lmasa, fe’l majhul darajada turadi. Egani aniqlash uchun من predlogidan keyin قبل, جانب, طرف ko’makchilari kelishi lozim.

Bu kitob o’qituvchilar tominidan ishlatiladi. تستخدم هذا الكتاب من قبل المعلمين

Agar “o’qituvchilar bu kitobni ishlatishadi” ma’nosidagi jumla kerak bo’lsa, quyidagicha bo’ladi va unda من قبل ko’makchisi zarur bo’lmaydi. Nega? Chunki fe’l majhul emas balki aniq darajada bo’lganligidan. يستخدم المعلمون هذا الكتاب

Agar muallif tomonni ,g’oyasi aniqlanadigan bo’lsa, unda بقلم, بريشة “qalami bilan” iboralari ishlatiladi. Unda ham fe’l majhul darajada turishi kerak bo’ladi.

Bu roman Mahmud Teymur qalamiga mansub

كتبت هذه الرواية بقلم محمود تيمور

Agar majhul darajadagi fe’l ishtirok etgan jumlada biror ish-harakat biror narsa-predmet vosidasida amalga oshirilgan bo’lsa, unda ب ko’makchisi ishlatiladi. M:

Eshik kalit bilan ochiladi يفتح الباب بالمفتاح

Quyidagi jumla boshlanayotgan fe’li علي قبض predlogi bilan kelganda “qo’lga olmoq” ma’nosini anglatadi. Agar fe’lning o’zi ishlatilganda “olmoq” ma’nosini anglatar edi. Bu fe’l عن predlogi bilan kelsa “ozod etmoq” manosi anglatadi.

Hozirgi-kelasi zamonda esa **يجب علي عن** o'zgarma shaklda ishlatiladi. Bu o'zgarma shakl qaysi shaxsga taalluqli ekanligi fe'ldan keyin kelgan **علي** predlogiga bog'liq.

Zayd yozishi kerak **يجب علي زيد أن يكتب**

Ba'zan **يجب** fe'li tushib qolib uning vazifasini **علي** predlogining o'zi bajaradi.

Zayd yozishi kerak **علي زيد أن يكتب**

Men borishim kerak **علي أن أذهب**

Agar mazkur **يجب علي** fe'l konstruksiyasi ishtirok etkan jumladagi ish harakat o'tgan zamonda berilgan bo'lsa, **كان** fe'li, kelasi zamonda esa **س** qo'shimchasi qo'shiladi. M: Zayd yozishi kerak edi **كان يجب علي زيد أن يكتب**

Uning ketishi kerak edi **سيكون عليه أن يذهب**

Agar **يجب** fe'lining o'rnida **واجب** sifatdoshi ishlatilsa ham uni **علي** predlogi boshqaraveradi.

Men buni qilishim kerak **واجب علي أن أفعل ذلك**

Men buni qilishim kerak **من الواجب علي أن أفعل ذلك**

Shuningdek, fe'ning predlog bilan kelishini **يمكن** modal fe'lining ishlatilishida ham kuzatish mumkin. **يمكن** fe'li ham **يجب** fe'lga o'hshash faqat 3 shaxs. muzakkar jinsda ishlatiladi. Bu ham ish-harakatni biror shaxsga taalluqli ekalligini bildirmaydi. Ish-harakatni bajargan shahs fe'ldan keyin kelgan **ل** predlogidan keyin kelgan ismga yoki unga qo'shilgan birikma olmoshiga bog'liq. Agar **يمكن** fe'lidan keyin masdar kelsa, shahsi topilmas gap bo'lib qoladi. M: yozish mumkin- **يمكن الكتابة**

يمكن modal fe'li ishtirok etgan jumladagi ish-harakatni konkret kimga tegishli ekalligi undan keyin kelgan **ل** predlogidan keyin keladigan so'zga bog'liq.

Zayd yozishi mumkin **يمكن لزيد أن يكتب**

Agar fe'lga birikuvchi olmosh qo'shilsa, **ل** predlogi tushib qoladi.

Unga yozish mumkin **يمكنه أن يكتب**

Agar aytilgan so'z o'tgan zamonga tegishli bo'lsa fe'ldan oldin **كان** fe'li keladi.

Zayd yozishi mumkin edi كان يمكن لزيد أن يكتب

Quyidagi misollar ham shu mavzuga taalluqli : bu arabcha kitobni sen kutubxonadan olishing mumkin يمكنك أن تأخذ هذا الكتاب العربي من المكتبة

Bu kishilarga bu poyezdga o'tirishlari mumkin يمكن لهؤلاء الناس أن يركبوا هذا القطار

Har bir tolib muhokamada ishtirok etishi mumkin يمكن لكل طالب أن يشترك في المنقشة

Agar fe'li o'rniga undan yasalgan ممکن -aniq darajadagi sifatdoshi kelsa ل predlogi tushib qoladi.

Senga uyda qolishing mumkin. من الممكن أن تبقى في البيت

1.5 Ko'makchilar bilan ko'p qo'llaniladigan fe'llar

Qaysi vazndagi fe'llar ko'pincha qaysi ko'makchilar bilan keladi ? Bu savolga javob berish uchun avval fe'llarni tasnif qilish lozim. Arab tilidagi fe'llar umuman 2 qismga bo'linadi:

- 1) Harakatni anglatuvchi fe'llar: وصل, هبط, نهض, نزل, سبح, وقع, رمي:
- 2) Holatni anglatuvchi fe'llar : دحك, بكا :

Birinchi guruhdagi fe'llar qayerga, qayerdan, nimani, kimga kabi so'roqlariga javob bo'ladi M: ذهب (qayerga), رجع (qayerdan).

Ikkinchi guruhga "أفس- hursand bo'lmoq - فرح -" افسوسlanmoq, qichiqirmoq- صاح,

charchamoq- تأخر - kech qolmoq, غاب - yo'q bo'lmoq, تعب -

Yuqoridagi ikkita guruhlarni yana shartli ravishda quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

- 1) Jismoniy faoliyatni anglatuvchi fe'llar: ركض , yugurmoq- حمل ko'tarmoq . Bunday fe'llar "qanday, qayerda" so'roqlariga javob bo'ladi.
- 2) Aqliy faoliyatni anglatuvchi fe'llar: فكر yuritmoq , o'ylamoq- ظن
- 3) Nutqiy faoliyatni anglatuvchi fe'llar: كلم , gaplashmoq- صاح , baqirmoq , دعا , chaqirmoq , قال , aytmoq , تكلم .

4) Taajjubni anglatadigan fe'llar : qanday yahshi- نعم -حبّدا , qanday yomon-بئس , لا حبّدا-بئس , ساء , لا حبّدا-

Sening gaping qanday yomon بئس الكلام كلامك

U qanday yahshi shoir! نعم شاعرًا هو!

Zaynab qanday yomon xotin ساءت امرأة زينب

5) Yaqinlikni bildiradigan fe'llar: كاد, أوشك, عسي, كرب, جري

6) Majbur etish ma'nosini anglatadigan fe'llar : أجبر, أرغم, حمل علي .
da'vat etmoq ناشد

7) Qasamni anglatuvchi fe'llar : قسم

8) Bajarish, ishlab chiqarish ma'nolarini anglatuvchi fe'llar: صنع
ishlab chiqarmoq, ishlamoq- عمل , qilmoq- جعل , yig'moq -
حصد ,

9) Sifat ma'nosini anglatuvchi fe'llar : صغر , كبر katta bo'lmoq ,
kichgina bo'lmoq, uzoq bo'lmoq بعد , chiroyli bo'lmoq , حسن yahshi
bo'lmoq .

Gullamoq ازدهر

Ko'p bo'lmoq كثر

Oz bo'lmoq قلّ

10) Ish harakatning aniq vaqtini anglatuvchi fe'llar

Ertalab nimadir qilmoq اصبح

Tunni o'tkizmoq بات

Kun bo'yi nimadir qilmoq ظلّ

Masalan بات fe'lini tahlil qiladigan bo'lsak, يا'ni "men tunni o'tkazaman"
degan ma'nodan tashqari yana, "men uyda bo'laman" ma'nosi ham bor, chunki بيت
so'zi aynan shu fe'ldan yasalgan, menimcha "men uylanaman" fe'li "men uy-joy
qilaman" iborasi bilan hamma'no bo'lishi ham mumkin. (Baranov¹ X.K. lug'atining
93-betida fe'li علي ko'makchisi bilan kelsa, "kechki payt hujum qilmoq")

1. Baranov X.K. Arabskiy-russkiy slovar M.1985 93b.

ma'nosini anglatadi, degan. ل ko'makchisi bilan kelsa "kingadir qasd qilmoq" ma'nosini anglatishini ko'rsatgan.) Ko'riniyaptiki, ko'makchilarning fe'liy boshqaruvidagi ro'li va ahamiyati katta.

Fe'lning o'rnini bosadigan sifat va sifatdoshlar

Ba'zan fe'ldan yasalgan sifatdoshning aniq darajasi, fe'l ma'nosida kelishi mumkin.

Gapda sifatdosh ishtirok etsada, fe'lligida qaysi predlog tomonidan boshqarilgan bo'lsa, sifatdoshligida ham huddi o'sha predlogni talab etaveradi. Quyidagi jumladagi ذاهب sifatdoshi fe'lligida الي ko'makchisi bilan kelganligi uchun, sifatdoshligida ham الي ko'makchisini talab qilayapti. Ikkinchi jumladagi شغل fe'lidan yasalgan شاغل sifatdoshi ham في ko'makchisi bilan boshqarilayapti. Shuningdek, holat holi vazifasini bajarayotgan sifatdosh qaysi fe'ldan yasalgan bo'lsa, o'sha fe'l boshqaradigan ko'makchilar bilan boshqariladi va o'timlilik ham fe'ldan "meros" qoladi.

كنت أحد الأيام ذاهبًا الي المدرسة
Kunlarning birida maktabga borardim.(boruvchi edim)

كان جدّي في تلك سنوات ذاهبًا يوميًا الي المدينة و كان شاغلًا هناك في مصنع كبير
Bobom o'sha yillari har kuni shaharga qatnar va u yerdagi katta zavodda ishlar edi.(ishlovchi edi)

توجّهت شبيبة الخمسينات الي فتح البادية اطاعةً لأمر القلب و تلبيةً لدعوة الشعب
50-yillar yoshlari yurak amriga bo'ysunib, xalq chaqirig'iga labbay deb, cho'lga yo'l oldilar.

مكتبتنا مزوّدة بالكتب المدرسيّة و العلميّة
Mazkur jumladagi ishtirok etgan اطاعةً sifatdoshi va تلبيةً masdari o'zining fe'llik paytida qaysi ko'makchi bilan kelgan bo'lsa huddi o'sha vositalar bilan otni boshqariyapti, ya'ni ikkala so'z ham ل ko'makchisi bilan kelayapti. (Talabov E. 212-b.)¹


مكتبتنا مزوّدة بالكتب المدرسيّة و العلميّة
Shuningdek, "ta'minlangan" sifatdoshi ham زوّد fe'lidan yasalib, ب ko'makchisi yordamida otni boshqariyapti.

Kutubxonammiz darslik va ilmiy kitoblar bilan ta'minlangan

مكتبتنا مزوّدة بالكتب المدرسيّة و العلميّة

1. Talabov E. Arab tili darsligi T. 1992

Bizning tadqiqot doiramizga “qayerga qayerdan” kabi so’roqlarga javob bo’ladigan fe’llar kiradi. M: دخل -kirmoq fe’li في , علي ko’makchilari bilan ishlatiladi.



Yuqoridagi fe’llar tasnifi va ularning ko’makchilar bilan birga kelib turli qo’shimcha ma’nolarni anglatishini ko’rdik. Ba’zi fe’llar o’zbek tiliga boshqacha ko’makchilar yordamida tarjima qilinishi mumkin yoki ko’makchi tarjimada tushib qolishi ham mumkin. M:jumlasini o’zbek tiliga “kechki namoz”(moslashgan aniqlovchi) deb tarjima qilish mumkin. Bunda في ko’makchisining o’rni yo’qdek ko’rinadi, yoki : men Ahmadning uyalganini ko’rmaganman– ما رأيت أحمد في خيره jumlasidagi في ko’makchisining o’rni tarjimada sezilmaydi.

Ba’zi ko’makchilar sinonim sifatida bir-birining o’rnida ishlatilishi mumkin. في va من bilan عن .

Shunday fe’llar borki, arab tilida ب ko’makchisi bilan ishlatilsada , o’zbek tiliga ko’makchisiz tarjima qilinadi.

Talabalar zalda shaxmat o’ynagan edilar- قد كان الطلاب يلعبون في القاعة بالشطرنج

Jumladagi ب ko’makchisi o’zbek tiliga tarjima qilinmaydi, fe’l bu predlogsiz qo’llanilmasa ham. Ba’zi jumalalarda buning aksini kuzatish mumkin-arab tilida fe’l ko’makchisiz ishlatilsada , o’zbek tiliga ko’makchili tarjima qilinadi M: كاتب – “yozishmoq” fe’li arab tilida predlogsiz kelsada, o’zbek tiliga “kim bilan yozishmoq” savoliga javob tariqasida beriladi. Arabchasi كاتب محمد أكبر “Muhammad Akbar bilan yozishdi”. Arabchasida “bilan” ko’makchisi bo’lmasada, o’zbek tilida “bilan” ko’makchisi orqali tarjima qilinadi.

Quyidagi fe’llar arab tilida ko’makchilar bilan ishlatilsada, o’zbek tilida esa ular ko’makchisiz qo’llaniladi:

Himoya, mudofaa qilmoq (kimni, nimani?)	دافع عن
Qilmoq, bajarmoq (nimani?)	قام ب
Olib kelmoq (kimni, nimani?)	جاء ب
Olib ketmoq (nimani?)	ذهب ب
Xohlamoq, rag'bat qilmoq (kimni, nimani?)	رغب ب
His etmoq (nimani?)	شعر ب
Olmoq, ega bo'ymoq (nimani, nimaga?)	حصل علي

(bu ma'lumotlar Shagalning Uchebnik ar.yaz.kitobining 659-661b. dan olindi)¹

Ko'makchilar aksariyat hollarda fe'llardan keyin kelib, otlarni boshqarishini ko'rib chiqdik. Bu holat ko'pincha o'timsiz fe'llarda ro'y berishining guvohi bo'ldik. Lekin o'timli fe'llar ham o'zi bilan ب ko'makchisini olib kelib vosita ma'nosini anglatishi mumkin. M:

Qalam bilan yozmoq	كتب بالقلم
Tramvay, metro bilan bormoq	ذهب بالترام(بالمetro)
Velosipedda sayr qilmoq	تنزه بالدراجة

Tadqiqot ishimimizda tahlil etilgan fe'llarda ko'makchilar fe'llardan keyin kelib u fe'lni boshqarganligini ko'rdik, lekin ko'makchilar modal fe'llardan yasalgan so'zlardan oldin keladi. M:

Mumkinki...	من الممكن أن
Mumkinki...	من المستحيل أن
Kutish mumkinki...	من المتوقع أن
U qilishi mumkin...	با مكانه أن

Modal fe'llar esa quyidagi ko'makchilar bilan keladi:

يجب علي, يمكن ل, من المعلوم أن, من المعروف أن

1. Sharbatov Uchebnik ar.yaz. M. 1998 659-661b.


Yuqoridagi sahifalarda har bir ko'makchining tasnifi va ma'nolarini alohida-alohida ko'rib chiqdik ko'makchi olib keladigan fe'llar turlarini ham bayon etdik.

II BOB. KO'MAKCHILI FE'LIY BIRIKMALARNING AMALADA QO'LLANILISHI.


2.1 Arab ommaviy axborot vositalari sahifalarida qo'llanilgan ko'makchili fe'liy birikmalarning statistik tahlili

Endi arab ommaviy axborot vositalarida ko'p uchragan ko'makchili fe'llardan namunalar keltiramiz. Bunda fe'llarning bittadan xatto oltitagacha ko'makchi bilan kelib ular otlarni boshqarganligining guvohi bo'ldik.

Tadqiqot olib borish jarayonida arab tilidagi gazetalarda mavzuumimizga doir ko'plab ko'makchili fe'llarga duch keldik va ular quyidagilar :



Bunday holatlarda qoidaga ko'ra predlog so'z yasash vazifasini bajaradi.



Ochilmoq , bo'lishmoq, baham ko'rmoq		كاشف
Ohirigacha eshitmoq, tinglamoq	علي , الي	تسمع
Badnom qilmoq , sharmanda qilmoq	ب	سمع
Bildirmay quloq solmoq, eshitmoq	الي	استمع
Yaqinlashmoq (kimga?)	الي, من	قرب
U bir soat atrofida kutdi		انتظر ما يقرب من الساعة
Yaqinlashmoq (kimga,nimaga?)		اقترب من
Yaqinlashmoq (kimgadir)	علي	
Olib kelmoq	ب	
O'zaro habarlashmoq	في	
Tug'ilmoq		جاء الي الدنيا
Oshib(ortib) ketmoq, ortiq bo'lmoq		زاد علي , عن
Ko'paytirmoq o'zidan qo'shib qo'ymoq o'stirmoq		تزيّد غي
Ishonmoq ¹		وثق ب
Dadil bo'lmoq		وثق من
Uylantirmoq, kuyovga bermoq		زوّج ب
Uylanmoq, kuyovga chiqmoq		تزوّج ب
Gaplashmoq		كلّم ب
Gaplashoq (qaysi tilda)		تكلّم ب
Suhbatlashmoq(kim bilan)		تكلّم مع, في , عن
His qilmoq, sezmoq		شعر ب
Habar bermoq		أشعر ب

1. Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983, 661b

Bajarmoq	ب	
Harakat qilmoq (poezd) turmoq (o'rnidan)	من	
Jo'namoq	الي	قام
Ro'y bermoq (...o'rtasida)	بين	
Himoya qilmoq (kimnidir?)	دون	

(Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983 661b.)²

Hikoya qilmoq, so'zlab bermoq	في , عن	قال
Bosh ko'tarmoq, qo'zg'almoq (kimgadir qarshi)	علي, ضدّ	قام
Behuda gaplarni aytmoq, vaysamoq, gap tarqatmoq	علي	تقول

Arab ommaviy axborot vositalarida shunday fe'llar uchraydiki, birinchi bobda ijobiy ma'noni anglatgan bo'lsa, unga ko'makchi qo'shilganda salbiy ma'noni anglatayotgan fe'lga aylanadi.

Xohlamoq		رغب
Xohlamaslik		رغب عن
Afzal ko'rmoq		رغب عنه به
İltimos qilmoq		رغب الي
Yetib bormoq	الي	
Taqdirlamoq	ب	وصل
Kechayu kunduz ishlamoq	في, ب وصل اليل بالتهار	

Aloqa o'rnatmoq, bog'lanmoq	ب	اتصل
Kelmoq	الي	

Yuqoridagi ko'makchili fe'llarning tasnifidan shunday hulosaga kelish

1.Shagal V.E. I dr . uchebnik ar. yaz. M.1983 76b.

Mumkinki, harakat ma'nosini anglatuvchi fe'llar asosan **فعل**-"faala" vaznida bo'lib, ular asosan **الي , من , علي** ko'makchilari bilan keladi .

Holatni anglatuvchi fe'llar esa aksariyat hollarda o'zi yakka, ko'makchisiz ishlatiladi. Sifat ma'nosidagi fe'llar esa **فَعْلٌ**-"faula" vaznida bo'lib, ulardan asliy sifatlar yasaladi.

Fe'llarning o'timli va o'timsiz bo'lishi ma'lum. Lekin fe'llarning bunday turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlash bu ikki fe'llarning ko'makchi bilan kelishi yoki kelmasligining farqini anglashda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ko'makchili fe'llarni kuzatib, arab tilidagi ko'makchilarning fe'llar bilan birga ularga turli qo'shimcha ma'nolarni berayotganiga guvoh bo'lamiz. M: **أخذ** "olmoq" fe'liga **عن** ko'makchisi qo'shilishi bilan butunlay boshqa ma'no kashf bo'layotganini koramiz, ya'ni "o'rganmoq" ma'nosi yoki **علي** ko'makchisi bilan kelganda "ko'rikdan o'tkizmoq(vrach)" qo'shimcha ma'nosi paydo bo'lganiga guvoh bo'ldik.

Ikkinchi bobda **سمِعَ** fe'li **الي , علي** ko'makchilari bilan kelsa butunlay boshqa ma'no-"sharmanda qilmoq" ma'nosining kelib chiqishi qiziq.

Yoki **وصل** fe'li **بِ** ko'makchisi bilan kelsa butunlay boshqa ma'no kasb etishini mana bu jumla misolida ko'rsa bo'ladi: **وصل الليل بالنهار** "u kechayu kunduz ishladi". Yoki **جاء** "kelmoq" fe'liga **الي الدنيا** iborasi qo'shilishi bilan "tug'ilmoq" ya'ni "dunyoga kelmoq" ma'nosi hosil bo'ladi.

Ma'lum bo'ldiki, bir fe'lining o'zi turli ko'makchilar bilan birga kelib, turli ma'nolarni anglatadi. Bunday ma'nolar har bir qo'shilgan ko'makchiga bog'liq. M:

U kimgadir salom berdi (u kim bilandir salomlashdi) **سَلَّمَ علي فلان**

U salomni yetkazdi (kimgadir) **سَلَّمَ اليه**

Bir hil ko'rinishdagi **سَلَّمَ** fe'liga **علي** va **الي** ko'makchilari qo'shilishi bilan u turli ma'nolarni anglatayapti. Birinchisida "kimgadir", ikkinchi gapda "yetkazmoq" mazmuni yuklatilgan.

دخَلَ va **خرج** fe'lining ko'makchi bilan kelgandagi holatida ham yuqoridagi qoidani tasdiqini ko'rish mumkin.

U uydan chiqdi **خرج من البيت**

U shaxar tomon yo'naldi	خرج الي المدينة
U sultonga qarshi chiqdi	خرج علي السلطان
U uning oldiga kirdi	دخل اليه
U uning oldiga daf'atan kirdi va topdi	دخل عليه

Yuqoridagi fe'llarning ishlatilish tarziga e'tibor beradigan bo'lsak ularning hammasi o'timsiz fe'llardir. Ba'zan fe'lni ko'makchi emas balki birikuvchi olmosh boshqarishi ham mumkin. M: نظر fe'liga –hu birikuvchi olmoshi qo'shilsa –نظره “u uni ko'rdi” ma'nosini, agar الي ko'makchisi qo'shilsa نظر اليه shaklidagi “u unga qaradi” ma'nolarini anglatadi. نظر في الأمر jumlasida esa “u ishni yaxshilab qarab o'rgandi” ma'nolarini anglatadi. بعث “jo'natmoq” fe'liga ب ko'makchisini qo'shish bilan بعث بكتاب jumlasida hosil bo'ladi va u “u hat yubordi” ma'nosida tarjima qilinadi.

Ba'zan fe'l o'rniga يجب علي modal fe'lining “qoldig'ini” ya'ni علي ko'makchisining o'zini keltirish mumkin. M: علي به so'zma so'z tarjima qilganda “manga u bilan” ma'nosini anglatadi, lekin aslida u “uni meni huzurimga olib kelishi” tarzida tarjima qilish lozim bo'ladi. Bu yerda علي va ب predlogining o'rniga va uning vazifasiga katta e'tibor berish lozim. (Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitelno-sitoricheskoy osvishsheni M. 1998 441b.)¹

2.2 Ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlarning amalda ya'ni arab OAV da ishlatilishi.

Fe'llar bilan keladigan ko'makchilarning tasnifi va ularning ma'nolari, ko'makchili fe'llarning tasnifi va ularning ko'makchilar tomonidan qo'shimcha ma'nolarni berishi boshqarilishi ayon bo'lgandan keyin endi ana shu ko'makchili fe'llarning arab ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishiga o'tamiz. Bunda gazetalarda e'lon qilingan maqolalarda ishtirok etgan mavzuimizda taalluqli ko'makchili fe'liy birikmalardagi boshqaruv munosabatlariga alohida e'tibor qaratamiz. Har bir jumlaning ostida muayyan maqolada ishtirok etgan ko'makchili fe'llar grammatik tahlil qilinadi. Gazetadan olingan birinchi maqolani tahlil etamiz. O'zbekcha tarjmasi:

Eslatilishicha, arab davlatlari qurollarni tarqatish va uni mablag' bilan ta'minlash, hususan, qurol bozoridagi raqobat sohasida qarshi chiqilishiga qaramay

1. Grande V.M. Kurs ar. Grammatiki v sravnitelno-sitoricheskoy osvishsheni M. 1998 441b.

Mazkur siyosiy-xarbiy jumlada عن أعلن ko'makchili fe'li ishtirok etayapt. Bu fe'l doim عن ko'makchisi bilan kelishi kerak, chunki "e'lon qilmoq" fe'li "nima haqida" savoliga javob bo'lishi uchun mazkur ko'makchi zarurdir.

أكد الوزير مجدداً أنّ مصر لن تقبل بما تقوله هذه البلاد من أنّها تحظا بوضع خاصّ يختلف عن الدّول الأخرى كمبرّر لعدم انتشار الأسلحة النوويّة

Vazir Misr bu mamlakat holati boshqa mamlakatlarnikidan tubdan boshqacha va u bilan atom qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomani tasdiqlash borasida o'zini oqlayotganligini yana bir bor ta'kidladi.

Bu jumladagi ب يختلف عن bo'lmoq "olmoq", تحظا ب "ko'nmoq", تقبل ب qilmoq, boshqacha bo'lmoq" kabi ko'makchili fe'llar ب va عن ko'makchilari bilan kelib, o'zi yakka holatda ishlatilganidan boshqacharoq ma'no kasb etmoqda. Agar mazkur fe'llarning o'zi ko'makchilarsiz ishlatilganda jumlaning ma'nosi boshqacha ma'noni anglatgan bo'lur edi.

أعلن رئيس شعبته الشرق الأوسط في وزارة الخارجية لهذا البلاد في تصريح الي مراصلين أنّ التّعاون بين البلدين في المجان العسكري "قائم ولكنّ تصفيلاته تعلن لأسباب تجاريّة" كما هو متعاف عليه في العالم

Bu mamlakat tashqi ishlar vazirligi O'rta Sharq bo'limi mudiri muhbirlarga aytdiki, haqiqatan ham, bu ikki mamlakatlar o'rtasida harbiy sohada aloqalar bor, lekin dunyoda qabul qilingan kommersiya ishlari nuqtayi nazaridan qaraganda biror narsa oshkora e'lon qilinmagan.

Bu jumlada ishtirok etgan ل تعلن fe'li "e'lon qilinadi" ma'nosida kelgan ko'makchili fe'l. ل bilan kelib bu predlogning yuqorida berilgan "tegishlilik, kimningdir foydasiga, sabab, maqsad" kabi ma'nolaridan sabab, maqsad ma'nosi to'g'ri kelgan shuning uchun ham tarjimada "oshkoralik e'lon qilinmagan" tarzida tarjima qilingan.

ذكرت صحيفة "الحليج" الصّادرة يوم 2000.01.04 أنّ مصر وافقت علي عروض الجمهوريات السّفياتيّة السّابقة خاصّة ارمنيا و أذربايجان للحصول علي بعض الأسلحة و قطع الغيار مقابل السلع المصريّة

"Halij " gazetasi habar qiladi, 1.04.2000 yil Misr sobiq Sovet Respublikalari, xususan, Armaniston va Ozarbayjon Respublikasining ba'zi harbiy qurollar va ularning ehtiyot qismlarini Misr mahsulotlariga almashtirdi.

Bu siyosiy jumlada علي , وافق علي kabi ko'makchili fe'llar ishtirok etgan.

و أضاف أنّ بلاده تعتمد علي نوعية السّلاح و ليس الكمّ لتتناسب و القارات البشريّة المتوفّرة لديها .

Keyin u mamlakati quollarining sifatiga asoslanib, mamlakatdagi ishchi kuchlarini soniga emas, balki sifat tomoniga e'tibor berishini aytdi.

Bu gazeta matnida تعتمد fe'li علي ko'makchisi bilan kelib, "asoslanmoq, tayanmoq" ma'nolarini anglatib bu fe'l نوعية السّلاح izofasini boshqarib kelyapti.

تمرّ صناعة الأسلحة الفرنسيّة بأزمة لا سابق لها تهدّد بخسارة 12 ألفاً من عمّانها و وظائفها حسب انداز أطلقه المندوب العام للتسلّح لمجلة... التي تتحكّم بعقود التّصدير العسكري .

Fransuz harbiy sanoati 12 ming ishchi o'rnini yo'qotish havfini tug'dirayotgan kuchli krizisni boshidan kechirmoqda. Bu haqda harbiy quollarni eksport qilish masalasini yorituvchi jurnalga harbiy quollar bo'yicha bosh komissar inter'yu berdi.

Bu murakkab jumlada بتمرّ ko'makchili fe'li أزمة so'zini boshqarib "krizisni boshidan kechiryapti" ma'nosini anglatadi. Agar bu iborani "krizis yonidan o'tayapti" deb tarjima qilganimizda butun jumlaning ma'nosi o'zgargan bo'lur edi. Jumladagi ب تهدّد ko'makchi fe'li خسارة so'zini boshqarib "yo'qotish havfi, yo'qolishiga tahdid solyapti" ma'nosini anglatiyapti. Jumladagi ko'makchili fe'l ni so'zma so'z tarjima qilsak konteksning umumiy ma'nosiga zid bo'lur edi shuning uchun bu iborani "yoritadi" deb berilsa umumiy tarjima o'zbek adabiy tili qoidalariga mos tushadi.

لا ستبعد أنّ زيارته ستبؤ بالفشل

Uning tashrifi muvofaqiyatsiz tugashi ehtimoldan holi emas.

Bu jumlada ishlatilayotgan ko'makchili fe'l (باء) ستبؤ ب ikki marta noto'g'ri hissoblanib u ب ko'makchisi bilan kelib الفشل so'zini boshqarib kelayapti . ushbu ko'makchi fe'l "muvaffaqiyatsiz tugaydi" ma'nosini anglatadi. Agar "u uning tashrifi muvaffaqiyatli tugaydi deganimizda jumla quyidagi shaklga ega bo'lar edi:

لا يستبعد أنّ زيارته ينتهي بنجاح .

لم يكن الأخبار عن وصول المراكب في وسائل الأعلام مسبقاً و أعتقد بأنّ الزيارة غير رسميّة

Kemalarning yetib kelishi haqida avval ommaviy axborot vositalarida hech qanday xabar berilmagan. Men bu tashrifni norasmiy hissoblayman .

Bu jumlada اعتقد fe'li ب ko'makchisi bilan kelsa , “o'ylamoq, hissoblamog” ma'nolarini anglatadi. U yerda ko'makchili fe'ldan keyin أن... ki , to'ldiruvchi ergash gapda ishlatiladigan yuklama kelayotganligi uchun ب bilan أن qo'shilib بأن hosil bo'lgan va bu ko'makchili fe'l الزيارة so'zini boshqariyapti.

كان طارق عزيز قد وصل الي أنقره قادمًا نت من موسكو في زيارة لم يعلن عنها مسبقًا

Toriq Aziz Moskvadan Anqaraga tashrif buyurdi , bu haqda avval habar berilmagan edi .

Mazkur jumlada وصل fe'li الي ko'makchisi bilan kelib Anqara so'zini boshqariyapti. عنها fe'li esa عن ko'makchisi bilan kelib عنها “u haqda” so'zini boshqariyapti. Yuqorida ikkala fe'l ham o'zi bilan olib kelgan ko'makchilarisiz kelganda jumlaning mazmuni buzilar edi. Agar أعلن fe'lini ko'makchisi bilan ishlatilganda ... أعلن الحرب علي ... “kingadir urush e'lon qilmoq” ma'nosini anglatgan bo'lur edi. Shunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun biz ko'makchili fe'llarning jumladagi o'rni va ma'nolari va boshqaruvidan kelib chiqib tarjima qildik.

قد كانت أبو ظبي تعتمد علي المياه التي تضرب الملوحة إذ أن الأبار التي كانت تزودها بالمياه كانت ضحلة

Abu Dabining suvi sho'r edi, chunki uni suv bilan taminlayotgan quduqlarning soni oz edi.

Bu jumlada تعتمد fe'li علي ko'makchisi bilan kelib المياه so'zini boshqariyapti fe'li esa ب ko'makchisi bilan kelib “ta'minlayotgan” ma'nosida qo'llanilayapti.

و أشار الي أن زيارته ستسهم في اجلال السلام و الاستقرار في هذه المنطقة

U takidlaydiki, uning tashrifi bu mintaqada tinchiklik va barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Ushbu jumladagi أشار الي va أشار الي ko'makchili fe'llarini tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi fe'l “ishora qiladi takidlaydi” , ikkinchi fe'l في ko'makchisi bilan kelib 4-bob fe'li “ishtirokchi bo'lmoq , hissa qo'shmoq ma'nolarini anglatadi. Agar bu fe'lni o'zining asl ma'nosi bilan o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, tarjima g'aliz, o'zbekcha chiqmagan bo'lur edi. Shuning uchun u ko'makchili fe'lni “ta'minlamog” ma'nosidagi fe'l bilan almashtirishga qaror qildik. 1-ko'makchili fe'l أشار الي , زيارته , أشار الي so'zini boshqarayotgan bo'lsa, أشار الي ko'makchili fe'li اجلال so'zini boshqariyapti.

XULOSA

Arab tili grammatikasida to'liq yoritilmagan "Ko'makchili fe'lliy birikmalarda boshqaruv munosabatlari" mavzusi ustida tadqiqot olib boorish jarayoni ancha murakkab kechdi, chunki mazkur mavzu ya'ni "ko'makchili fe'llar" sarlovhali mavzuni hech qaysi manbadan topa olmadik. Mavzuni to'liq ochib berish, ko'makchili fe'llar va undagi fe'lliy boshqaruv masalasini ijobiy hal qilish maqsadida juda ko'p manbalarni izlashga to'g'ri keldi. Lekin arabcha maqolda aytilganidek من جدّ وجد "kim ahtarsa, topadi" hikmatiga tayanib, o'z oldimmizga qo'ygan natijaga erishdik.

Oldimmizga qo'yilgan asosiy maqsad-bitiruv malakaliy ishi jarayonida arab tili grammatikasidagi yechilmagan muammolarning birini yechilishiga biroz bo'lsada hissa qo'shish edi. Ko'p vaqt sarf etilgani befoyda bo'lmadi. Mavzuimmiz bo'yicha bitiruv malakaviy ishni yozish davomida biz quyidagicha masalalarni ijobiy hal etib shunday hulosaga keldik.

1- "Arab tilida ko'makchi fe'lliy birikmalarda boshqaruv munosabatlari" mavzusini yoritishda eng ko'p ishlatiladigan ko'makchilarni to'plab ularni tasnif ettik va ma'nolarini aniqladik. (17b.)

2- Eng ko'p ishlatiladigan ko'makchilar bilan keladigan fe'llarni tasnif ettik va ularni ma'nolarini ochib berishga harakat qildik. (33b)

3- Ko'makchili fe'llarning arab ommaviy axborot vositalarida qo'llanishi va ularning ma'nolarini misollar bilan ko'rsatdik. (42b)

4- Ko'makchili fe'llar haqida arabshunos olimlarining fikrlarini o'rgandik va ularga o'z fikrimizni bildirdik. (8b)

5- Barcha ko'makchilarni tasnifladik va ularning asl ma'nolari haqida hamda fe'llar bilan kelgandagi ma'nolarini bayon etdik.(17b.)

6- Arab tilidagi ko'makchili fe'llarni o'zbek tilidagi shunday alternativ fe'llariga qiyos qildik (16b.)

7- O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'z+o'zbekcha ko'makchi fe'llar ya'ni murakkab fe'llar haqifa fikr yuritdik.(16b.)

8- Modal fe'llar, "boshlamoq va davom etmoq" fe'llarining ko'pincha في ko'makchisini olib kelishini misollar bilan berishga erishdik.(31b)

9- Boshlamoq va davom etmoq fe'llarining في ko'makchisi bilan kelishini misollar bilan berdik. (22b.)

10- Majhul darajadagi fe'llarning ko'makchilar bilan kelishining o'ziga hos xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik. (29b.)

11- Arab tilidagi ko'makchilarni o'zbek tilidagi ko'makchilarga qiyoslab ularning o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatdik.(16b.)

12- Fe'lning o'rnini bosadigan sifat va sifatdoshlarning gapdagi o'rnini aniqladik. (29,34b.)

13- Ish-harakatning aniq vaqtini anglatuvchi fe'llarni ko'rsatdik.

14- Sifat ma'nosini anglatuvchi fe'llarni topib, ularni misollar bilan berdik.

15- Qo'sh predloglarning fe'llar huzurida kelish holatlarini misollar bilan berdik. (30b.)

Xullas, "Ko'makchili fe'liy birikmalarda boshqaruv munosabatlari" mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borishimiz natijasi menimcha muvofaqiyatli yakun topdi, lekin oxirgi baholash muhtaram ustozlarimga havola.

Ushbu mavzu bitiruv malakaviy ishi uchun mavzu sifatida to'g'ri tanlangan. Chunki mazkur mavzuga bizgacha hech kim qo'l urmagan ekan. Biz ushbu mavzu mohiyatini amalda ko'rsatish uchun harakat qildik. Mazkur mavzuni yoritish bo'yicha izlandik, biroz yangilik topishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati ham shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1- Mirtojiyev A. O'zbek tilida fe'l valentliklari T.Unv. 2007
- 2- Xojiyev A. Fe'l T. "Fan. 1973".
- 3- Hozirgi o'zbek adabiy tili "Fan 1966".
- 4- G'ulomov K. Hozirgi zamon o'zbek tili T. 1966
- 5- Xojiyev A. Tilshunoslikning izohli lug'ati T. 2002
- 6- Shabanov J. Turk va o'zbek tillarida harakat fe'llarining semantikasi. Fil. Fan. Nomz. Diss. T. 2004
- 7- Abdujabborov A. Arab tili T. T.I.U. 2007
- 8- Ibragimov I. D. Intensivniy kurs arabskogo yazika M.2006
- 9- Ibrohimov N. , Yusupov M. Arab tili grammatikasi T. 2001
- 10- Talabov E. Arab tili darsligi T. 1992
- 11- Abzalova M. , Xasanov M. arab tili darsligi 2006
- 12- Hammabob arab tili T. 1996
- 13- Baranov X.K. Arabskiy-russkiy slovar M.1985
- 14- Borisov V.M. Russkiy-arabskiy slovar M.1981
- 15- Russkiy-uzbekskiy slovar T.1984
- 16- Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki sravnitelno-istoricheskoy osveshenii M. 2001
- 17- Lebedev V.T. , Tyureva L.S. Prakticheskiy kurs arabskogo yazika M.2005
- 18- Kovalyov A.A. , Sharbatov G. Sh. Uchebnik arabskogo yazika M. 1998
- 19- Overchenko T.V., Uspenskiy N.A. Arabskiy yazik dlya nachinayushshix M.1992
- 20- Kuzmin S.A. Uchebnik arabskogo yazika M.2005
- 21- Shagal V.E. I dr. Uchebnik arabskogo yazika M. 1983

- 22- Dubinina N.V. , Kovirshena V.E. Uroki ar.yaz M.2004
- 23- Mayburov N.A. Perevodim gazetnuyu statyu
- 24- Lebedev V.V. Arabskaya garmmatika M.2007
- 25- 1906 كتاب شزل العرف , الشيخ أحمد الحملوي بيروت لبنان
- 26- T.2006 الدروس النحويّة حفني ناصف , محمّد دياب

ARAB SAYTLARI :

1. www.aljazeera.net
2. www.alwatan.com
3. www.arabia.com
4. www.rian.ru
5. www.rambler.ru
6. www.google.ru
7. www.muravey.ru
8. www.ino@upak.uz
9. www.geraldika.ru/region/114
10. www.regalah4.com مركز الاعلام العربي
11. www.amin.org امين للخدمات الصحافيّة و الاعلاميّة
12. www.danah.com مركز دانه يعتمد علي صحف و وكالات الأنباء
13. www.asharqaawsat.com الشرق الأوسط